



TIBBIY TA'LIM O'QUV JARAYONIDA RAQAMLASHTIRISH

Xalmuhamedov B.T., Nurillaeva N.M.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

Kirish. Zamonaviy ilmiy texnologiyalar yangi voqelik sifatida yangi atamalarning paydo bo'lishiga olib keldi, shu jumladan «raqamli» ta'rifi – raqamli iqtisodiyot, raqamli san'at, raqamli pedagogika, raqamli tibbiyot va sog'liqni saqlash va boshqalar. Raqamli pedagogikaning ta'lim vositasi sifatidagi vazifasi qisman eski sifatni yaxshilashda va qisman yangi sifatning paydo bo'lishida namoyon bo'ladigan texnologik imkoniyatlar bilan ta'minlanadi. Zamonaviy jamiyatda samarali yuqori sifatli ta'lim xizmatlari faqat raqamli pedagogika tomonidan metodik jihatdan aniqlangan va qo'llab-quvvatlanadigan kompyuter texnologiyalar asosida taqdim etilishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi. Tibbiy ta'lim o'quv jarayonida raqamlashtirish

Tadqiqot materiallari va usullari. Umuman ta'lim muhiti dunyoviy o'zgarishlarga duch kelmoqda. Biz tibbiy ta'limdagi o'quv jarayonini raqamlashtirishning hozirgi holatini aniqlaydigan va raqamli ta'lim muhitini yanada shakllantirish bilan bog'liq xavflarni, shu jumladan, modellashtirish asosidagi mashg'ulotlarini aniqlaydigan turli xil elektron ta'lim usullarini umumlashtirdik va tahlil qildik.

Tadqiqot natijalari. Oliy tibbiyot maktabida raqamli o'qitishning ommaviy joriy etilishi uning oldiga fan sifatida quyidagi vazifalarni qo'yadi: jamiyatni har tomonlama raqamlashtirishning muqarrarligi to'g'risida xabardorlik va tushunish; raqamli ta'lim dasturlash tizimi asosida ta'limni shaxsiylashtirish muammosini hal qilish; ta'lim jarayonida informatsion texnologiyalarni ishlab chiquvchilari tomonidan doimiy ravishda taqdim etilayotgan raqamli resurslardan samarali foydalanishning hayotiy imkoniyatlarini o'rganish; uzluksiz tibbiy ta'limning barcha darajalarida talabalarning o'quv faoliyatining sezgi va ruhiyatiga ta'sir etuvchi yo'llarini tadqiq qilish; kompyuter texnologiyalari yordamida ta'lim mazmunini modellashtirishning zamonaviy tadqiqotlari; o'qituvchilar tarkibini tayyorlash; raqamli texnologiyalarning talabalar salomatligiga ta'sirini o'rganish. Raqamli pedagogikaning xatarlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: uy vazifalari, masalalarni echish va testlarni yuklab olish muammosi bilan bog'liq xavfi; talabalarning xatti-harakatlarini nazorat qilish uchun raqamli ma'lumotlardan foydalanish; o'qituvchilar tarkibining o'quv jarayoniga axborot kompyuter texnologiyalarini ommaviy joriy etishga qarshiliklari; axborot texnologiyalarining insonga ta'sirining salbiy oqibatlari xavfi; «raqamli bo'shliq» - bu talabalarning farovonligi darajasiga, shuningdek ularning yashash joyiga qarab raqamli xizmatlar va mahsulotlardan foydalanishning turli sharoitlari tufayli yuzaga keladigan raqamli ta'limdagi bo'shliq. Ikkinchi darajali to'siqlar o'qituvchilarning axborot kompyuter texnologiyalariga nisbatan ishonchini oshirish.» SHuningdek, talabalar zamonaviy ta'lim muhitida ishlashga tayyor emasligi bilan ham ajralib turadi. Talabalar savolni aniq bayon qilishni, ma'lumot va asosli javoblarni izlashni talab qiladigan yozma ishlarni bajarish uchun zarur vakolatlarga ega emaslar, aksariyat hollarda ular muhokama va tahlil qanday o'tkazishni bilishmaydi hamda munozaralarda va boshqa raqamli ta'lim tomonidan taklif qilinadigan o'quv faoliyati shakllarida qatnashishni xohlamaydilar

Xulosa. Oliy ta'limning kelajagi amaliy muammolar echimini o'rganish motivatsiyasini oshirishga olib keluvchi hamkorlikdagi (qo'shma) ta'lim, geymifikatsiyani rivojlantirish, tarmoq boshqaruv, xodimlar o'rtasidagi muhit va boshqa ta'lim texnologiyalarini faqat axborot kompyuter texnologiyalar yordamida amalga oshirishda namoyon bo'lmoqda.